



WHAT IS A CONFLICT OF INTEREST? WHAT DEFINITIONS ARE GIVEN IN OUR NATIONAL LEGISLATION AND BY INTERNATIONAL ORGANIZATIONS?

Khalimov Islombek

Master's student of the Law Enforcement

Academy of the Republic of Uzbekistan,

“Anti-Corruption” faculty

Key words: Conflict of interest, interest, conflict, personal interest.

Annotation. This article covers the concept of conflict of interest. The author touched upon the definitions of the concept of conflict of interest given by international organizations and national legislation.

Manfaatlar to‘qnashuvi nima? Milliy qonunchiligimizda va xalqaro tashkilotlar tomonidan qanday ta’riflar berilgan?

Xalimov Islombek Shavkatbek o‘g‘li. O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Korrupsiyaga qashi kurashish” yo‘nalishi magistratura bosqichi tinglovchisi.

Kalit so‘zlar: Manfaatlar to‘qnashuvi, manfaat, to‘qnashuv, shaxsiy manfaatdorlik.

Anotatsiya. Ushbu maqolada manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi keng yoritilgan. Muallif manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasiga xalqaro tashkilotlar tomonidan va milliy qonunchilikda berilgan ta’riflarga to‘xtalib o‘tgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat va jamiyat hayotining turli jabhalaridagi o‘zgarishlarga va amalga oshirilayotgan ijobiy sa’y-harakatlarga davlat xizmatida korrupsion harakatlar o‘zining turli yashirin ko‘rinishlari bilan g‘ov bo‘lmoqda. Bunda korrupsiogen xususiyatga ega bo‘lgan



qonun buzilishi holatlari faqatgina moddiy pul va qiymatliklar asosidagina emas, balki davlat xizmatchilarining turli harakatlarni amalga oshirish yoki oshirmaslik natijasida, davlat va jamiyat hayotiga, uning turmush darajasi yomonlashuviga, fuqarolarning hukumatga bo‘lgan ishonchsizligiga sabab bo‘ladi. Korrupsiya bilan bir qatorda manfaatlar to‘qnashuvi zahirida ham turli yakka shaxs va guruhlarining, taraflarning manfaatlari bilan fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlari to‘qnashuvi yuzaga keladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi huquqshunoslik uchun mutlaqo yangi bo‘lib, “manfaat” va “to‘qnashuv” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘plab huquqshunoslar e‘tibor berishadi. Bu atamalarning o‘zi huquqshunoslikka boshqa fanlardan shakllangan kategoriyalar sifatida kirib kelgan bo‘lib, bizning maqsadimiz uni turli ko‘rinishlarida batafsil ko‘rib chiqish bo‘lganligi sababli, “manfaat” va “to‘qnashuv” deganda nimani anglatishini tahlil qilishimiz zarur.

“Манfaat” so‘zi arabcha – foyda, daromad, moddiy, ma’naviy, jismoniy va boshqa jihatdan ko‘riladigan foyda so‘zlarining tavsifidir¹. “Манfaat” tushunchasi manfaatlar to‘qnashuvini tushunish uchun asosiy element hisoblanadi. “Манfaat” hodisasiga nafaqat huquqshunoslik, balki sotsiologiya, psixologiya, iqtisod va boshqa fanlar ham alohida e‘tibor beradi. Masalan, psixologiyada “manfaat”ning subyektiv xususiyati asos qilib olinadi va manfaat subyektning ruhiy kayfiyatiga uning ichki emotsional holatini tavsiflovchi kategoriya sifatida qaraladi². Iqtisodchilar “manfaat”dorlikni iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish uchun mahsulotni qayta ishlab chiqarishda vujudga keladigan shaxs, jamoa yoki jamiyat o‘rtasidagi bevosita munosabatlar sifatida tavsiflaydi³.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. Tahrir hayati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. .:T. 26-bet.

² См.: Матузов Н.И. Личность. Права. Демократия: теоретические проблемы субъективного права. Саратов: Издательство Саратовского университета, 1972. С. 209.

³ См.: Пахомов Ю.Н. Интересы в системе экономических отношений социализма / отв. ред. Ю.И. Палкин. Киев: Наук. думка, 1974. С. 45.



Sotsiologiya “manfaat”ni bir shaxs uchun ham, butun jamiyat uchun ham obyektiv zarur, muhim, mazmunli va foydali narsa sifatida talqin etadi⁴.

“To‘qnashuv” so‘zi lotincha “conflictus” so‘zidan olingan bo‘lib, qarama-qarshilik, qarama-qarshi tomonlar, qarama-qarshi fikr, kuch, kelishmovchilik va nizo, shuningdek qarama-qarshi kuch va fikrlarning to‘qnashuvi ma’nolarini bildiradi⁵.

Yuqorida aytib o‘tkanimizdek, sotsiologiyada “to‘qnashuv” tomonlarning ijtimoiy o‘zaro ta’siri jarayonida manfaatlar, maqsadlar, ehtiyojlar to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Bu yerda ziddiyat subyektlarning o‘zaro ta’siri jarayonida yuzaga keladigan muqarrar haqiqat sifatida belgilanadi⁶. Konfliktologiyada esa allaqachon “to‘qnashuv”ning kengroq ta’rifi berilgan, unga ko‘ra, ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida yuzaga keladigan manfaatlar, maqsadlar, qarashlardagi qarama-qarshiliklarni hal qilishning o‘tkir yo‘li “to‘qnashuv” bo‘lib, bu o‘zaro ta’sir ishtirokchilarining qarama-qarshiligidan iborat va odatda qoidalar va me’yorlardan tashqariga chiqadigan salbiy his-tuyg‘ular bilan birga keladi⁷. Iqtisodiyotda “to‘qnashuv” - bu qarashlar va munosabatlardagi qarama-qarshilik, turli xil, qarama-qarshi manfaatlar to‘qnashuvi va keskin nizo hisoblanadi⁸.

Yuqorida biz “manfaat” va “to‘qnashuv” so‘zlarining lug‘aviy va turli fanlardagi ma’nolariga to‘xtalib o‘tgan bo‘lsakda, shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, “manfaat” va “to‘qnashuv” so‘zlari birikmasidan hosil bo‘lgan “Manfaatlar to‘qnashuvi” iborasining yuridik tabiatini aniqlashda uning huquqiy

⁴ См.: Матузов Н.И. Указ. соч. С. 31.

⁵ “Korrupsiyaga qarshi kurashish”. Darslik. Ma’sul muharrir: A.Sh.Bekmurodov: - T.: “Akademiya” 2023. 40-bet.

⁶ Социологическая энциклопедия: В 2 т. Национальный общественно-научный фонд / Руководитель научного проекта Г.Ю. Семигин; Главный редактор В. Н. Иванов. – М.: Мысль, 2003. – С. 482.

⁷ Анцупов А. Я., Шипилов А. И.. Значение, предмет и задачи конфликтологии // Конфликтология. – М.: ЮНИТИ, 1999. – 551 с. – 10 000 экз. – ISBN 5-238-00062-6.

⁸ Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б.. Современный экономический словарь. – 2-е изд., испр. М.: ИН- ФРА-М. – 479 с. – 1999.



ma'nosiga alohida etiborimizni qaratishimiz kerak hisoblanadi.

Bevosita “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu tushunchaning asosiy xususiyatini **shaxsiy manfaatdorlik** tashkil etadi. Davlat xizmatchisining shaxsiy manfaatlari - bu uning subyektiv tushunchalari va ehtiyojlari bilan muayyan shaxsga xos bo‘lgan manfaatlar yig‘indisidir. Ya’ni shaxsiy manfaatdorlik, davlat xizmatchisining o‘zining mansab vakolatlaridan foydalangan holda daromadlar ko‘rish shaklidagi **tijoriy**, xizmat mavqeidan foydalanish orqali huquqlar yaratishda ifodalanadigan **siyosiy**, o‘zi va yaqin qarindoshlari uchun yaratadigan **shaxsiy** manfaatdorlikdan iborat.

Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, moddiy manfaatlar shaxsiy manfaatdorlikning asosiy xususiyati bo‘lib, ular, qoida tariqasida, obyektiv xususiyatga ega va yuzaga keladigan ehtiyojlarni qondirish bilan bevosita bog‘liqdir. Aynan moddiy manfaatdorlik davlat boshqaruvi tizimidagi o‘zaro ta’sirning barcha subyektlari bilan moddiy qiziqishda ifodalaniadigan ziddiyatga kirishishi mumkin. Bundan tashqari “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasi negizida ijtimoiy manfaat ham yotadi va shaxsning turli kichik va yirik ijtimoiy guruhlar bilan ijtimoiy aloqalari tizimini aks ettiradi. Ular mansabdor shaxsni qanchalik chuqur qamrab olsa, bu manfaatlarni amalga oshirishga mansabdor shaxsning qiziqishi shuncha ko‘payadi degani. Bu jihatdan, birinchi navbatda, oilani va qarindosh-urug‘larni ajratib ko‘rsatish kerak, chunki bu guruh o‘zaro mas’uliyat va mehr-muhabbat bilan bog‘langan eng yaqin to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar va hamkorlik bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, do‘stlar davlat amaldorining shaxsiyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa guruh bo‘lishi mumkin. Biroq, bu yerda shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, biz ko‘rib chiqayotgan “manfaatlar to‘qnashuvi” iborasida shaxsiy qiziqish faqat ularning maqsadlari umumiy bo‘lsagina paydo bo‘lishi mumkin. Agar biz davlat xizmatchisi umumiy manfaatlarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan yirik ijtimoiy guruhlar haqida gapiradigan bo‘lsak, unda ishdagi hamkasblarni, shu jumladan,



siyosiy va boshqa tashkilotlarni sanab o‘tishimiz kerak bo‘ladi.

Shu o‘rinda “manfaatlar to‘qnashuvi” hodisasida siyosiy manfaatlarga ham to‘xtalib o‘tsak. Siyosiy manfaatlar – shaxsning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va hodisalarga munosabati, dunyoqarash tamoyillari, e‘tiqodi, munosabati bilan tavsiflanadi. Siyosiy manfaatlarning mansabdor shaxsning rasmiy vazifalarni bajarishga ta’siri uni siyosiy jarayonlarga jalb etilishi bilan belgilanadi va odatda doimiy va vaziyat omillari bilan bog‘liq hisoblanadi.

Bevosita “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasi va uning huquqiy tabiati tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, birinchi o‘rinda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga e‘tiborimizni qaratishimiz kerak bo‘ladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasining 7-moddasi davlat sektorida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan. Bu mamlakatlardan davlat sektorida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni, shu jumladan, davlat mansabdor shaxslarining xulq-atvor kodekslarini, moliyaviy va boshqa hisobot talablarini, davlat moliyasini boshqarishda oshkoralik va hisobdorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash va qo‘llab-quvvatlashni, ishtirokchi davlatlar qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq shaffoflikni ta‘minlaydigan va “manfaatlar to‘qnashuvi”ning oldini oladigan tizimni yaratish va mustahkamlashga intilishi kerakligi bilan bog‘liq qoidalar kiritishni talab qiladi. Ushbu moddada, shuningdek, davlat amaldorlarini ishga qabul qilish, yollash, xizmatni o‘tash, qo‘llab-quvvatlash va o‘qitish uchun tegishli tizimlarni yaratish, shuningdek korrupsiya haqida xabar bergan xabarchilarni himoya qilish talab etiladi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, ushbu moddaning 4-bandida har bir ishtirokchi davlat, o‘z ichki qonunchiligining asosiy tamoyillariga muvofiq, oshkoralikni ta‘minlashga xizmat qiladigan hamda manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishini oldini oladigan tizimlarni yaratish, qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashga harakat qilishi belgilab qo‘yilgan. Xususan, bunday shaxslar



ommaviy vazifalarni to'g'ri, vijdonan va tegishli darajada bajarish talablariga javob berishlari mumkin bo'lishi uchun ma'rifiy va o'quv dasturlarni amalga oshirishga ko'maklashadilar hamda korrupsiya va o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan xatarlarni chuqurroq anglashlari maqsadida ular ixtisoslashgan hamda muvofiq tayyorgarlikdan o'tishlarini ta'minlaydilar. Bu kabi dasturlarda kodekslarga asoslanishlar yoki amaliy sohalardagi axloq standartlari mavjud bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, ushbu Konvensiyaning 12-moddasida xususiy sektorda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan. Unga ko'ra har bir ishtirokchi davlat, o'z ichki qonunchiligining asosiy tamoyillariga muvofiq, xususiy sektorda korrupsiyaning oldini olish, buxgalteriya hisoboti va auditi standartlarini kuchaytirish va tegishli hollarda, bunday choralarga rioya qilinmasligi uchun samarali, mutanosib va tiyib turuvchi ta'sir ko'rsatadigan fuqarolik-huquqiy, ma'muriy yoki jinoiy jazolarni belgilash choralari ko'rishi belgilangan. Bunday maqsadlarga erishishga qaratilgan choralar sifatida esa quyidagi normalar keltirib o'tilgan:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar va tegishli xususiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikka ko'maklashish;
- tegishli xususiy tashkilotlar faoliyatida halollikni ta'minlash uchun mo'ljallangan standart va taomillarni, shu jumladan tadbirkorlar va barcha tegishli kasb-hunarlar sohiblari o'z faoliyatlarini to'g'ri, vijdonan va tegishli darajada amalga oshirishlari uchun va manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish hamda tijorat korxonalar o'rtasidagi munosabatlarda va bunday korxonalar va davlat o'rtasidagi munosabatlarda halol tijorat amaliyoti qo'llanilishini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan standart va taomillarni ishlab chiqishda ko'maklashish;
- sobiq ommaviy mansabdor shaxslarning professional faoliyatiga nisbatan yoki bunday ommaviy mansabdor shaxslar xususiy sektordan iste'foga yoki



pensiyaga chiqqanlaridan keyin ularning ishiga nisbatan (qachonki bu kabi faoliyat yoki ish shunday ommaviy mansabdor shaxslar o'z lavozimlarini egallab turganda yoki bunday ishlar ustidan nazorat olib borganlarida ularning funksiyalari bilan bevosita bog'liq bo'lganda), tegishli vaziyatlarda va oqilona muddatga cheklovlar belgilash yo'li bilan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olish va boshqalar.

Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 1996-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi"da ham manfaatlar to'qnashuviga to'xtalib o'tilgan. Unga ko'ra:

- davlat mansabdor shaxslari o'z mansab vakolatlaridan o'zining yoki oila a'zolarining shaxsiy yoki moddiy manfaatlarini ko'zda tutish uchun foydalanmasligi kerak. Ular o'zlarining lavozimi, funksiyalari va majburiyatlari yoki ularning bajarilishi bilan mos kelmaydigan hech qanday bitimlarni amalga oshirmasliklari, boshqa biron bir lavozim yoki funksiyaga ega bo'lmasliklari yoki moliyaviy, tijorat yoki boshqa shunga o'xshash manfaatlariga ega bo'lmasligi;
- davlat mansabdor shaxslari o'z lavozimi talab qiladigan darajada qonunlar yoki ma'muriy siyosatga muvofiq manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan tadbirkorlik, tijorat va moliyaviy manfaatlar yoki moliyaviy manfaat ko'rish maqsadida amalga oshirilgan faoliyati to'g'risida e'lon qilishlari shart. Davlat mansabdor shaxslarining majburiyatlari va shaxsiy manfaatlari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki taxmin qilingan manfaatlar to'qnashuvi holatlarida ular manfaatlar to'qnashuvini kamaytirish yoki bartaraf etish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarga rioya qilishlari;
- davlat mansabdor shaxslari hech qachon o'z xizmat vazifalarini bajarish yoki bajarish natijasida olingan davlat pul mablag'lari, mol-mulk, xizmatlar



yoki ma'lumotlardan o'z xizmat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat uchun noto'g'ri foydalanmasligi;

- davlat mansabdor shaxslari o'z mansabini tark etgandan so'ng o'zlarining avvalgi lavozimidan nomaqbul ravishda foydalanmasliklari uchun qonun hujjatlarida yoki ma'muriy siyosatda belgilangan chora-tadbirlarga rioya qilishlari shart ekanligi belgilab qo'yilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida ham, Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro xulq-atvor kodeksida ham manfaatlar to'qnashuvi boshqa so'z (manfaatlar kolliziyasi) bilan ifodalangan yoki "manfaatlar kolliziyasi" tushunchasining aynan ta'rifi berilmagan bo'lsa ham mazmun jihatdan ikki so'zning nisbatan sinonim ekanligini tushunish mumkin. Bundan tashqari ikkala xalqaro hujjatda ham bevosita "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasiga ta'rif berib o'tilmagan.

"Manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasiga BMTdan boshqa xalqaro tashkilotlar ham alohida ta'riflar bergan bo'lib, ularga ham birma-bir to'xtalib o'tsak. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (OECD) talqiniga ko'ra, "Manfaatlar to'qnashuvi" – bu davlat mansabdor shaxsining ijtimoiy-huquqiy majburiyatlari va shaxsiy manfaatlari o'rtasidagi ziddiyat bo'lib, unda uning shaxsiy manfaatlari (davlat mansabdor shaxsining xususiy shaxs sifatidagi mavqeidan kelib chiqqan holda) uning rasmiy vazifalari yoki funksiyalarini bajarishiga noqonuniy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyat deb talqin etiladi⁹. Ushbu talqinga ko'ra, davlat amaldorining xususiy fuqaro sifatidagi manfaatlari va ularning davlat yoki davlat xizmatchisi sifatidagi burchlari (rasmiy burch) o'rtasida ziddiyatning qabul qilinishi mumkin bo'lmagan ehtimoli mavjud bo'lsa, "manfaatlar to'qnashuvi" mavjud deyish mumkin.

⁹ Руководство ОЭСР по разрешению конфликтов интересов на государственной службе. ОЭСР, Июнь 2003.



Jahon Banki esa “manfaatlar to‘qnashuvi”ni davlat xizmatchisi yoki jismoniy shaxsning shaxsiy manfaati bo‘lgan, uning rasmiy vazifalari va mas’uliyatiga noto‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holat deb ta’riflaydi. Bundan tashqari, “manfaatlar to‘qnashuvi”ni ta’riflashda Jahon Banki unda quyidagi elementlar mavjud ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi:

- davlat amaldori: mamlakat ichki qonunchiligiga muvofiq davlat mansabdor shaxslari sifatida belgilangan shaxs;
- rasmiy harakat: mansabdor shaxs o‘zining rasmiy faoliyatida harakatni amalga oshiradi, shu jumladan qarorlar qabul qiladi yoki rasmiy muhokama, harakat yoki harakatni tavsiya qilish jarayonida boshqa tarzda muhim ishtirok etadi;
- shaxsiy manfaatlar: mansabdor shaxs yoki boshqa shaxslar, shu jumladan mansabdor shaxs bilan bog‘liq bo‘lgan yuridik shaxslar, odatda, rasmiy xatti-harakat ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatlarga ega¹⁰. Ushbu ta’rifning elementlariga davlat burchi, jamoatchilik ishonchi yoki manfaatlar to‘qnashuvi natijasida qonun hujjatlaridagi aniq normalarning buzilishi talabi kiradi. Bundan tashqari, Jahon Bankining talqiniga ko‘ra, “manfaatlar to‘qnashuvi” har qanday muhitda va ba’zan davlat amaldorining irodasiga qaramasdan paydo bo‘lishi mumkin. Har bir insonning(davlat xizmatchisining ham) shaxsiy manfaatlari bor ekanligiga qaramasdan davlat xizmatchilari esa jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga va xolis mezonlar asosida qaror qabul qilishga majburdirlar.

Manfaatlar to‘qnashuvining yana bir ta’rifi Yevropa Kengashi Model kodeksining 13-moddasida keltirilgan. Unga ko‘ra, “manfaatlar to‘qnashuvi” – davlat amaldori o‘zining mansab vazifalarini xolis va obyektiv bajarishiga ta’sir

¹⁰ Preventing and Managing Conflict of Interest in the Public sector. Good practices guide. Public Disclosure Authorized. July 2020. Page 2.



qilishi kabi shaxsiy manfaatlarga ega bo‘lgan vaziyatdir¹¹. Davlat mansabdor shaxsining shaxsiy manfaatlariga o‘zi, uning oilasi, yaqin qarindoshlari, do‘stlari va u bilan ishbilarmonlik yoki siyosiy aloqada bo‘lgan shaxslar yoki tashkilotlar uchun har qanday imtiyozlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu kodeksda, mansabdor shaxs “manfaatlar to‘qnashuvi”ga duch kelganda qanday harakatlar qilish kerakligi ham sanab o‘tilgan. Unga ko‘ra mansabdor shaxs quyidagilar uchun shaxsiy javobgarlikka ega:

- har qanday haqiqiy yoki mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvidan ehtiyot bo‘lish;
- manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish choralarini ko‘rish;
- o‘z rahbariga har qanday manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabardor bo‘lishi bilanoq oshkor qilish;
- ushbu vaziyatdan chiqish yoki manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘lgan o‘ziga nisbatan afzalliklardan voz kechish to‘g‘risidagi har qanday yakuniy qarorga rioya qilish.

Biz yuqorida “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasiga xalqaro tashkilotlar tomonidna berilgan ta’riflarni birma-bir sanab o‘tdik. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasiga milliy qonunchiligimizda mavjud ta’riflarga to‘xtalib o‘tsak. 2017-yilda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunda berilgan umumiy “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasiga va 2022-yilda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunda berilgan davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat faoliyatida vujudga keluvchi “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasiga e’tiborimizni qaratamiz. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunda manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik

¹¹ Recommendation No. R (2000) 10 of the Committee of Ministers to Member states on codes of conduct for public officials. Adopted by the Committee of Ministers at its 106th Session on 11 May 2000. Article 13.



shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat ekanligi belgilab o'tilgan¹². "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunda esa, manfaatlar to'qnashuvi – davlat fuqarolik xizmatchisining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z xizmat vakolatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda fuqarolarning, jamiyatning yoki davlat organining shaxsiy manfaatdorligi va huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatdir deb belgilab qo'yilgan¹³. Ushbu moddaga ko'ra, yuqoridagi xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilab qo'yilgan tartibdagidek manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat fuqarolik xizmatchisi o'zining rahbariga yoki yuqori turuvchi davlat organiga darhol yozma shaklda xabar qilishi kerak ekanligi va manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan davlat organining rahbari yoki yuqori turuvchi davlat organi ushbu to'qnashuvni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shartligi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan normalarda, mamlakatimizda amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga ko'ra, "manfaatlar to'qnashuvi"ga berilgan ta'riflar bilan tanishib chiqdik. Unga ko'ra, biror bir munosabatni "manfaatlar to'qnashuvi" deb topishimiz uchun bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik mansabdor shaxsning (davlat fuqarolik xizmatchisining) mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki kelajakda

¹² "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RBQ-419-son. 3-modda.

¹³ "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 08.08.2022 yildagi O'RBQ-788-son. 19-modda



ta'sir ko'rsatishi hamda uning shaxsiy manfaatdorligi va fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik vujudga kelishi kerak edi. Biroq yuqoridagi "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasiga berilgan ta'riflarning barchasini o'zida mujassam etgan va birlashtirgan aniq ta'rifga to'xtalib o'tsak.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 10-mayda "Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasida "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasiga aniqlik kiritildi¹⁴. Ushbu loyihani ishlab chiqishga esa "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni asos qilib olingan edi¹⁵. Ushbu farmonga ko'ra, qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan lavozimni egallab turgan shaxsning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaati mansab (xizmat) majburiyatlarini obyektiv va xolis bajarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyatlar manfaatlar to'qnashuvi hisoblanishi hamda bunday vaziyatlarni oshkor qilish va ularning oldini olish bo'yicha o'z vaqtida chora ko'rmaganlik o'rnatilgan tartibda javobgarlikni keltirib chiqarishi belgilangan edi. Bundan tashqari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq har qanday holatlar aniqlanganda, shartnoma, buyruq va boshqa hujjatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida taqdimnoma yoki uni haqiqiy emas deb topish bo'yicha sudga da'vo kiritish vakolati berilgan edi. Biz e'tiborimizni qaratishimiz kerak bo'lgan eng muhim jihati esa, ushbu farmonda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat

¹⁴ <https://regulation.gov.uz/oz/d/60813>

¹⁵ <http://old.lex.uz/docs/5495529>



xizmatini rivojlantirish agentligi va Bosh prokuratura bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar «Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish to‘g‘risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi yuklatilgan edi. Ushbu loyiha 2022-yil 10-maydan 25-maygacha umumxalq muhokamasiga taqdim etilib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi siyosiy partiyalari tomonidan o‘qib chiqildi.

Ushbu loyihada manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasiga aniqlik kiritilmoqda. Unga ko‘ra, manfaatlar to‘qnashuviga davlat tashkiloti xodimi, uning yaqin qarindoshlari va unga aloqador shaxslar shaxsiy manfaatlari bilan fuqarolar, tashkilot yoki davlat huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan va kelayotgan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat, deya ta’rif berilmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu qonun loyihasida yuqorida aytib o‘tilgan “manfaatlar to‘qnashuvi” negizida yotuvchi ijtimoiy manfaat va shaxsning turli kichik va yirik ijtimoiy guruhlar bilan ijtimoiy aloqalari tizimi ham o‘z aksini topmoqda. Ular mansabdor shaxsni qanchalik chuqur qamrab olsa, bu manfaatlarni amalga oshirishga mansabdor shaxsning qiziqishi shuncha ko‘payadi degani. Bu jihatdan, birinchi navbatda yangi qonun loyihasida ham ko‘rishimiz mumkinki, oilani va qarindosh-urug‘larni alohida ajratib ko‘rsatmoqda. Chunki bu guruh o‘zaro mas’uliyat va mehr-muhabbat bilan bog‘langan eng yaqin to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar va hamkorlik bilan tavsiflanadi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunda “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasidagi subyektni umumiy “shaxs” deb sanab o‘tilgan bo‘lsa, “Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasida davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat muassasalari, davlat unitar korxonalar, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda davlat ulushi 50% va undan yuqori bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va ustav fondida(ustav kapitalida) ushbu jamiyatlarning ulushi 50% va undan yuqori bo‘lgan yuridik shaxslar mansabdor shaxslariga amal qilishi



belgilanib, “manfaatlar to‘qnashuvi” subyektiga yanada aniqlik kiritilmoqda. Ushbu qonun loyihasida amalga oshirilgan eng katta yangliklardan biri, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilanmoqda va Agentlikka quyidagi vakolatlar berilmoqda:

- davlat tashkilotlarining manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;
- manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha davlat tashkilotining faoliyatini o‘rganish;
- manfaatlar to‘qnashuvi holatlari to‘g‘risidagi xabarnoma, taxmin qilinayotgan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya hamda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakllarini tasdiqlash;
- manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq har qanday holatlar aniqlanganda, bitim, buyruq va boshqa hujjatni bekor qilish to‘g‘risida davlat tashkilotiga taqdimnoma yoki ularni haqiqiy emas deb topish bo‘yicha sudga da‘vo kiritish.

Yuqoridagi tahliliy fikrlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchasiga berilgan ta’riflar turlicha bo‘lishiga qaramasda, barcha ta’riflarda umumiy mansabdor shaxs, uning yaqin qarindoshlari va unga aloqador shaxslarning manfaatlari bilan fuqarolar, tashkilotlar yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik bo‘lgan(yuzaga kelgan, mavjud bo‘lgan yoki vujudga kelishi mumkin bo‘lgan) vaziyat ekanligi aytiladi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2022-yil 10-mayda “Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasida “manfaatlar to‘qnashuvi” davlat tashkiloti xodimi, uning yaqin qarindoshlari va unga aloqador shaxslar shaxsiy manfaatlari bilan fuqarolar,



tashkilot yoki davlat huquqlari va qonuniy manfaatlarini o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan va kelayotgan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat deb bergan ta’rifi yuqoridagi brilgan ta’riflarni barchasini o‘zida qamrab olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

References:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korrupsiyaga qarshi Konvesniya”si.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 1996-yil 12-dekabrda qabul qilingan “Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi”
3. Yevropa Kengashi Model kodeksi.
4. Руководство ОЭСР по разрешению конфликтов интересов на государственной службе. ОЭСР, Июнь 2003.
5. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419-son.
6. “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 08.08.2022 yildagi O‘RQ-788-son.
7. Preventing and Managing Conflict of Interest in the Public sector. Good practices guide. Public Disclosure Authorized. July 2020. Page 2.
8. “Korrupsiyaga qarshi kurashish”. Darslik. Ma’sul muharrir: A.Sh.Bekmurodov: - T.: “Akademiya” 2023.
9. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. Tahrir hayati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. .:T.
- 10.См.: Матузов Н.И. Личность. Права. Демократия: теоретические проблемы субъективного права. Саратов: Издательство Саратовского университета, 1972.



- 11.См.: Пахомов Ю.Н. Интересы в системе экономических отношений социализма / отв. ред. Ю.И. Палкин. Киев: Наук. думка, 1974.
- 12.См.: Матузов Н.И. Указ. соч.
- 13.Социологическая энциклопедия: В 2 т. Национальный общественно-научный фонд / Руководитель научного проекта Г.Ю. Семигин; Главный редактор В. Н. Иванов. – М.: Мысль, 2003.
- 14.Анцупов А. Я., Шипилов А. И.. Значение, предмет и задачи конфликтологии // Конфликтология. – М.: ЮНИТИ, 1999.10 000 экз. – ISBN 5-238-00062-6.
- 15.Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б.. Современный экономический словарь. – 2-е изд., испр. М.: ИН- ФРА-М.